

## O‘SIB KELAYOTGAN YOSH AVLOD, BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARI ONGIDA BUYUK AJDODLARIMIZ HAQIDAGI TUSHUNCHALARNI SHAKILLANTIRISH

**Hofizova Zubayda Maxmadoli Qizi**

*Samarqand viloyati Urgut tumani*

*34-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi*

*Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi*

### **Annotatsiya**

*Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ongida buyuk ajdodlarimiz va ularning ma‘naviy merosini o‘rganishlari uchun ular haqidagi ma‘lumotlar aks ettirilgan ko‘rgazmali qurollardan foydalanish. Bu ko‘rgazmali qurollarda buyuk ajdodlarimiz nomi, o‘quvchilar o‘rtasida o‘tkaziladigan musobaqalarda beriladigan guruh nomi bo‘lib kelgan.*

### **Kalit So‘zlar**

*Bilim, tajriba, maqsad, yosh avlod, o‘quvchi, tarbiya, tushuncha, ajdodlarimiz, ma‘naviy meros, jarayon, ma‘lumot, kartochkalar, guruh, musobaqa.*

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘zining “Yabgi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” kitobining xat boshida shunday deyilgan; “Ishonchim komil, biz jonajon Vatanimizga bo‘lgan cheksiz mehrimiz va sadoqatimizni muqadas bayroq qilib, bor bilim va tajribamiz, aql-zakovatimizni ishga solib, yagona xalq, yagona millat bo‘lib, ko‘zlagan ezgu maqsadlarimizga albatta yetamiz.” Shunday ekan o‘sib kelayotgan yosh avlodlarni Vatanga muhabbat, sadoqat va komil inson qilib tarbiyalash biz o‘qituvchilarning burchimizdir. O‘quvchilar ongida vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirish uchun biz ularga buyuk ajdodlarimiz haqidagi tushunchalarni o‘rgatishimiz lozim. Bu orqali o‘quvchilar buyuk ajdodlarimizning Vatanga bo‘lgan muhabatlari va uning rivojlanishi uchun qilgan sayi-harakatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishadilar.

O‘tmishga nazar tashlasak unda ko‘pgina buyuk ajdodlarimiz bizga katta ma‘naviy meros qoldirib ketishgan. Ular haqidagi dastlabki tushunchalarni o‘quvchilar boshlang‘ich sinfdanoq o‘ganib borishadi. O‘quvchilarga beriladigan maktab darsliklarida buyuk ajdodlarimiz haqidagi ma‘lumotlarni yetarlicha topishimiz mumkin. Bu ma‘lumotlar o‘quvchilarni komil inson qilib tarbiyalash vatanga muhabbat, sadoqat ruhida ta‘lim tarbiya berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari biz o‘quvchilar ongida ajdodlarimiz va ularning ma‘naviy merosini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini yanada orttirish uchun dars jarayonlarida quyidagi ko‘rgazmalardan foydalanishimiz mumkin.

Turli dars jarayonlarida yoki darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar o‘rtasida musobaqalar tashkillashtirish kerak bo‘ladi. Ko‘pincha biz bunday musobaqalarni guruhlarga bo‘lib o‘tkazamiz. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida bunday musobaqalar tez-tez o‘tkaziladi. Bu orqali o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttirishimiz va dars samaradorligiga erishishimiz mumkin. O‘tkaziladigan musobaqalarning guruh nomlarini

kartochkalarga ko‘pgina hollarda “AQILLILAR” “BILIMDONLAR” “ZUKKOLAR” “CHAQQONLAR” va boshqa nomlarni yozib guruhlariga tarqatamiz.

“AQILLILAR”

“BILIMDONLAR”

“ZUKKOLAR”

“CHAQQONLAR”

Xuddi shunday guruh nomi bilan kelgan kartochkalarga buyuk ajdodlarimiz nomini yozsak, o‘quvchilarda ular haqidagi tushunchalar kengayadi va mustahkamlanadi. Buning uchun biz:

- guruh nomini yozish uchun-uchburchak shakildagi to‘rt yoki beshta kartochkani tayyorlab olamiz;
- uni bir tomoniga buyuk ajdodlarimiz nomlarini yozib chiqamiz;

ABU ALI IBN  
SINO


ALISHER  
NAVOIY

AMIR TEMUR

MIRZO  
ULUG‘BEK

- keyingi tomoniga esa ularning rasmi hamda ular haqidagi qisqacha ma‘lumotlarni yozamiz. Ma‘lumotlar o‘qituvchi tomonidan chuqurlashtirilib tushuntirilishi maqsadga muvofiq. Quyida Abu Ali Ibin Sino va Alisher Navoiy nomlari keltirilgan ikkita guruh nomi keltirilgan.

## ABU ALI IBN SINO



- ▶ 980-1037 yillar.
- ▶ Buxoro yaqinidagi Afshona qishlig‘ida tug‘ilgan
- ▶ “Olimlar boshlig‘i”, “Tabiblar podshohi” nomlariga sazavvor bo‘lgan
- ▶ 450 dan ortiq asalar muallifi, bizgacha 160 dan ziyod asarlari yetib kelgan
- ▶ Mashhur asarlari: “Tib qonunlari”, “Kitob an-najot”, “Ash-shifo”, “Aqsom al-ulum al-aqliya”
- ▶ Falsafa, ijtimoiyot, tarix fanlariga hissa qo‘shgan
- ▶ Ma‘mun akademiyasida faoliyat yuritgan.

## ALISHER NAVOIY



- ▶ 1441-1501-YILLAR
- ▶ HIROTDI TAVALLUD TOPGAN
- ▶ DAVLAT ARBOBI, FAYLASUF, SHOIR, YOZUVCHI
- ▶ ASARLARI: “HAMSA”, “MAJOLIS UN-NAFOIS”, “MANTIQ UT-TAYR”, “MAHBUB UL-QULUB”, “MUHOKAMATUL-LUG‘ATAYIN”, “MEZON UL-AVZON”

Xuddi shunday kartochkalarga buyuk ajdodlarimiz nomi va ular haqidagi ma‘lumotlarni yozib tayyorlab olamiz. Bu kabi kartochkalardan ona tili, matematika, tabiiy fanlar va boshqa dars jarayonlarida foydalanishimiz mumkin bo‘ladi. Bunday kartochkalardan nafaqat boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘rtasida, balki yuqori sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan darslarda ham foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Bundan xulosa shuki, o‘quvchilar o‘zlarining guruh nomi bo‘lib kelgan ajdodlarimiz haqida tushunchalarga ega bo‘lishadilar. Ularning ongida ajdodlarimizga bo‘lgan faxr, iftixor tuyg‘ulari shakllanadi. O‘quvchilar o‘zlari ham ulardek el-yurt ardog‘idagi komil inson bo‘lib yetishishga harakat qilishadilar.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh. M. Mirziyoyev “ Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. “Oqituvchi” M U, 2021-yil
2. Sh. M. Mirziyoyev “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini barpo etamiz”. T: “Ozbekiston” 2016 yil
3. M.N. Aminov ” Buyuk ajdodlarimiz” O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti 2010-yil.